



CHANG CHOLG'U IJROCHILIGINING TA'LIM JARAYONIDAGI MEZONLARI

Muallif: Abdunazarova Diyora¹, Axadjon Mamadaliyev²

Affiyatsiya: O'zbekiston davlat konservatoriysi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti, "Xalq cholg'ulari" ta'lism yo'naliishi II bosqich talabasi¹, O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasи dotsenti, Turon Fanlar Akademiyasi faxriy professori²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14464907>

ANNOTATSIYA

O'zbekiston musiqa san'atining hozirgi rivojlanish bosqichida cholg'u ijrochiligi muhim o'rinn tutadi. Shu sababli musiqa ta'limi jarayonida bo'lajak sozandalarning ijrochilik mahorati talab darajasida shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Maqlada san'atning naqadar nafisligi, mashaqqatli kasb ekanligi, uning mashaqqati va yuksalishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: san'at, madaniyat, ta'lim, musiqa, ijro, tasvir, nota savodxonligi, chang, sozanda.

Dunyoda o'z milliy musiqasiga ega bo'limgan, biron ta xalq bo'limganidek qadimda barcha xalqlar musiqa va musiqa asboblarining kelib chiqishini osmon ruhlar dunyosi bilan bog'laganlar. Shu sababli ertaklarda sehrli nay chalinishi bilan hamma beixtiyor o'yinda tushib ketadi. Afsonalarda aytishchicha, yoqimli ohang jo'rligida aytiganda mo'jizaviy holatlari ro'y beradi.

Ayrim manbalarda qayd etilishchicha va tasviriyl san'at yodgorliklarida tasvirlanishchicha xalq musiqa me'rosimiz keng tarqalibgina qolmay, balki ancha rivojlanganligi ham ma'lum bo'lmoqda. Sharq olimlarining nazariy qarashlari, mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllanib bo'lib, ular o'z risolalarida musiqanining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot bergenlar. Shu boisdan ijrochilik san'atida aynan sozandalarning o'z tarixi va o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda yoshlar tomonidan nota savodxonligi boshlang'ich musiqa ta'limi – bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zlashtirilmoqda. Lekin, o'rta maxsus va oliy musiqa ta'limi jarayonida bo'lajak sozandalarning nota savodxonligi ko'nikma va malaka darajasiga ko'tarilishi kerak. Misol uchun chang cholg'u ijrochiligi bo'yicha nota savodxonligi nazariy va amaliy jihatdan uyg'un o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Buning uchun bo'lajak sozandalarga nota savodxonligiga doir manbalar va adabiyotlarni izchil o'qib borish tavsiya etiladi. Yozma manbalarga ko'ra XV, XVII asrlardan boshlab "chang" sozi musiqa hayotimizda ma'lum o'rinn egallay boshlangan.

Chang cholg'usi qachon ixtiro qilinganligi to'g'risida anniq ma'lumotlar mavjud emas. Lekin arxeologik qazimalardan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan arfa (chang), bu cholg'uning qadimiyligidan dalolat beradi. Ularga ko'ra bu soz dastlab kichik hajmda tirnab chalinadigan cholg'u bo'lib bu o'zining jarangdorligi va tovush tarovatining boyligi bilan ajralib turgan. Ushbu cholg'u arab musiqasida "Qonun", Eronda "Santur", 

o'zbek va tojik an'analarida "chang" deb nomlangan [1]. Chang cholg'usining imkoniyati keng. Unda nafaqat o'zbek milliq musiqlarini, balki, jahon kompozitorlarining asarlarini mohironalik bilan ijro etish mumkin. Uzoq yillar davomida chang cholg'usining vatani Misr hisoblangan va u qadimgi yodgorliklarda o'z aksini topgan. Chang cholg'usining besh xili, ya'ni uchta burchakli va ikkita yoysimon ko'rinishlari mavjud ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlab berilgan. O'rta maxsus va Oliy ta'lim jarayonida sozandalarning ijro mahoratini kutilgan darajada shakllantirishning ikkinchi mezoni asarlarni chuqur o'zlashishidir. Hozirgi kunda masalan, chang cholg'usi uchun quyidagi asarlar turlari mavjud: 1) xalq kuylari; 2) kompazitorlar asarlari; 3) mumtoz kuylari; 4) chang cholg'usi uchun moslashtirilgan asarlar. Bo'lajak sozandalar ularni yetarli darajada o'zlashtirishi kerak. Aslida asarlar sozandaning butun faoliyati davomida o'zlashtirib boriladi. Biroq, musiqa ta'limi jarayonida o'zlashtirilgan asarlar sozanda uchun toshga o'yilgan naqshdekk bo'ladi. Chunki asarlar bevosita ustoz ko'magi va yordamida o'zlashtiriladi. Chang asr-asrlardan o'zbek xalqiga ma'daniy xizmat qilib kelayotganligi milliy musiqa cholg'ularidan biri hisoblanadi. Chang so'zi yaqqol namoyondalari Ahmad Odilov, Fozil Xarratov, Rustam Negmatov va vatanimizdagi birinchi ayol changchi Fazilat Shukurovalar ham changning yillar davomida shakllanishiga o'z hissasini qo'shganlar. Musiqanening o'ziga xos sehrli ohangrabosi bor deyishadi. U har bir qalbni allalaydi, o'ziga jalb etadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, mahoratlari sozanda Fazilat Shukurova musiqanening faqat yurak torlari sadosi deb emas, balki butun umrining mazmuni deb biladi. U respublikamizda tanilgan birinchi ayol changchi hisoblanadi.



Chang cholg'usi haqida O'rta asr allomalarining musiqiy risolalarida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Muhammad al-Forobiyning yozishicha bu cholg'u Samarcandlik Xulays ibn Axvas tomonidan So'g'dda ixtiro etilgan bo'lib so'ngra Bag'dodda va boshqa mamlakatlarda tarqalgan [2].

O'rta maxsus va oliy ta'limi jarayonida bo'lajak sozandalarning ijro mahoratini shakllantirishning bir necha mezonlari mavjud. Bu mezonning talab va takliflar majmui tashkil qiladi. Shu jihatdan o'rta maxsus va oliy musiqa ta'lim jarayonida chang cholg'u ijrochiligi bo'yicha bo'lajak sozandalarning ijro mahoratini shakllantirish mezonlari quyidagicha belgilash mumkin:

- nota savodiga ega bo'lish;
- asarlarni chuqur o'zlashtirish;

- izchil mashq;
- sahna madaniyatiga rioya qilish.

Insonni ichki dunyosini, ruhiyatini ochib beradigan mayin va shirali milliy musiqiy ohanglar, san'at ustalari, yosh adabiyotxonlar tomonidan Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Cho'lpon, Usmon Nosir, Oybek kabi bir qancha adiblarning badiiyat mazmunlari yoki diniy-tarbiyaviy manbalar bozorlardagi yoki mahalla guzaridagi radiouzellar orqali, metro va korxonalarda jarangdor ovozda yangrab tursa eshituvchilarga albatta hush yoqadi.

Ayrim manbalarda va tasviriy san'at yodgorliklarida tasvirlanishicha xalq musiqa merosimiz keng tarqalibgina qolmay, balki ancha rivojlanganligi ham ma'lum bo'lmoqda. Sharq olimlarining nazariy qarashlari, mavjud ijodkorlik san'ati tajribasi asosida shakllanib borib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot bergenlar. Shu boisdan ijrochilik san'atida aynan sozandalarning o'z tarixi va o'rni beqiyosdir.

Forobiy shaxodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflanishicha barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishida foydalanylган. Chang cholg'usi xalq va milliy cholg'ularimiz ichida qadimiy va navqiron cholg'ulardan hisoblanadi. Chang cholg'u ijrochiligi nazariyasi va amaliyotida mashhur san'atkor Darvesh Ali Changiy Buxoriyning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Uning aytishicha, Chang 26 torli bo'lib, uning 7 pardasi Shashmaqomning har bir maqomi ijrosi uchun mo'ljallangan, ammo chinakam chang ijrochisi bo'lish uchun 12 maqomda musiqa ijsro eta olishi kerak bo'lgan.

Chang eng ko'p tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Xaydarova R. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi". 2021 y.
- Odilov A. "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi". 1995 y.
- Mamadaliyev A. "Ansambl sinfi". 2020 y.